

MUHANDISLIK TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA INNOVATSION PEDAGOGIKANING AXLOQIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

Mannopov Xamid Mutalovich
(TDTU f.f.n., dotsent)

Annotatsiya: *Falsafa insoniyat tarixining eng qadimiy va eng dolzarb fanlaridan biridir. Uning asosiy vazifalaridan biri — inson mavjudligining mohiyatini, ijtimoiy va axloqiy xulqini tahlil qilish, insoniy qadriyatlarni aniqlashtirishdir. Bu borada inson erkinligi va axloqiy tanlov muammosi alohida o'rin egallaydi. Inson o'z hayotida har kuni tanlov qiladi: yaxshilik va yomonlik, adolat va zolimlik, rostgo'ylik va yolg'on o'rtasida. Har bir tanlov esa muayyan oqibatlarga olib keladi va bu tanlov insonning axloqiy yetukligini ko'rsatadi. Ushbu tezisdan inson erkinligi tushunchasi, uning tarixiy-falsafiy talqinlari hamda axloqiy tanlov bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *gender tengligi, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy transformatsiya, zamonaviy jamiyat, feminizm falsafasi, gender tadqiqotlari.*

Erkinlik falsafaning markaziy tushunchalaridan biridir. Deyarli har bir davr va falsafiy maktab erkinlikka o'ziga xos yondashgan. Antik davr faylasuflaridan Platon uchun erkinlik — bu ongning nafs ustidan g'alabasi edi. Unga ko'ra, haqiqiy erkinlik — bu aql bilan boshqariladigan hayot tarzidir. Aristotel esa erkinlikni siyosiy kontekstda ko'rib, uni fuqarolik erkinligi va axloqiy mas'uliyat bilan bog'lagan. O'rta asrlarda erkinlik diniy ma'noda talqin qilindi. Masalan, Avliyo Avgustin inson erkinligini ilohiy iroda bilan bog'ladi. Unga ko'ra, haqiqiy erkinlik — bu Tangrining irodasini ongli ravishda qabul qilishdir. Yangi davr falsafasida Dekart, Spinoza, Kant kabi mutafakkirlar erkinlikni inson ongi va irodasi bilan bog'lab o'rganishdi. Immanuil Kant erkinlikni axloqiy qonunga bo'ysunish bilan ifodalagan. U shunday degan edi: “Erkinlik — bu o'z-o'zini axloqiy qonunlarga bo'ysundirishdir.” Ekzistensializm vakili Jan-Pol Sartre esa erkinlikni inson mavjudligining ajralmas qismi deb bilgan. Unga ko'ra, inson “erkinlikka mahkumdir”, ya'ni har qanday sharoitda tanlov qilishga majbur. Bu tanlov esa doimiy mas'uliyat yuklaydi.

Inson hayotida tanlov doimiy ravishda sodir bo'ladi. Tanlov esa axloqiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Inson nega aynan bir yo'lni tanlaydi? Nima uni boshqa yo'ldan qaytaradi? Bu savollarni falsafa chuqur o'rganadi. Axloqiy tanlov faqatgina tashqi qoidalar asosida emas, balki ichki e'tiqod, axloqiy fazilatlar asosida amalga oshiriladi. Aynan shu jihati bilan u boshqa qarorlardan farqlanadi. Axloqiy tanlov qilgan inson o'zining qarori uchun javobgarlikni his etadi. Sartre bu holatni shunday ifodalagan: “Inson har doim tanlov qiladi va o'z harakati orqali butun insoniyatga namuna yaratadi.” Ya'ni, har bir inson o'z qarori orqali boshqa odamlarga axloqiy yo'l ko'rsatadi.

Falsafada erkinlik muammosi doimo deterministik yondashuv bilan qarama-qarshilikda tahlil qilinadi. Determinizmga ko'ra, dunyoda har bir hodisa ma'lum sabablar natijasidir. Agar inson ham bu dunyoning bir qismi bo'lsa, demak, uning qarorlari ham sabab-oqibatga bo'ysunadi. Biroq erkin iroda tarafdorlari insonni passiv mavjudot sifatida emas, balki ongli, tanlov qila oluvchi mavjudot deb hisoblaydi. Ular fikricha, inson ongining mavjudligi, axloqiy me'yorlarga asoslangan xatti-harakatlari — erkinlikning isbotidir. Zamonaviy neurofalsafa va psixologiya sohalarida ham bu mavzu dolzarbdir. Ba'zi tadqiqotlar inson qarorlarini miyadagi neyron faollik orqali tushuntiradi. Ammo bu qarorlar ongli tanlov asosida qabul qilinishini inkor etmaydi. Shu sababdan ham falsafa, ilm-fan va din bu masalada bir-birini to'ldiradi, biroq to'liq izoh bera olmaydi.

Bugungi kunda erkinlik faqat falsafiy tushuncha emas, balki ijtimoiy, siyosiy va huquqiy masaladir. Demokratiya, inson huquqlari, so'z erkinligi kabi tamoyillar erkinlik g'oyasiga asoslanadi. Biroq bu erkinliklar doim ham axloqiy tanlov bilan bog'lanmaydi. Masalan, internetda so'z erkinligining suiiste'mol qilinishi yoki sun'iy intellektning inson o'rniga qaror qabul qilishi — axloqiy tanlov muammosini yangicha shaklda qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy texnologiyalar davrida ham inson o'z tanlovini ongli, axloqiy va mas'uliyatli tarzda amalga oshirishi zarur. Bu — insoniylikning asosi bo'lib qoladi.

Zamonaviy jamiyatda gender tengsizligi va u bilan bog'liq muammolar falsafiy yondashuvlar orqali chuqur tahlil qilinmoqda. Gender masalalari nafaqat huquqiy yoki ijtimoiy muammo, balki madaniy, iqtisodiy va texnologik jarayonlar bilan bog'liq murakkab fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Fransuz sotsiologi Pierre Bourdieu nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy kapital shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilaydigan ijtimoiy aloqalar tarmog'i bilan bog'liq bo'lsa, habitus esa odamlarning madaniy va ijtimoiy tuzilmalarga moslashgan ong osti me'yorlari va odatlar tizimidir[3]. Gender tengsizligi ham ushbu ijtimoiy tuzilmalarda mustahkamlanib, kishilar ongida normal holat sifatida shakllanadi. Quyida zamonaviy jamiyatda gender tengsizligi bilan bog'liq muammolar falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Inson erkinligi va axloqiy tanlov — bir-biri bilan uzviy bog'liq falsafiy tushunchalardir. Inson faqatgina erkin bo'lsa, axloqiy tanlov qila oladi. Tanlov esa doimiy mas'uliyat bilan birga keladi. Falsafa bu masalani chuqur tahlil qilgan, turli talqinlarni taklif qilgan. Bugungi kunda ham bu muammo o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Har bir inson, ayniqsa yoshlar, erkinlik nima ekanligini, uning cheklari va imkoniyatlarini tushunishi, axloqiy qarorlar qabul qilishda mas'uliyatni his qilishi zarur. Zero, haqiqiy erkinlik — bu o'z ustida ishlash, tanlov qilish va uning oqibatlariga javob bera olishdir.

Zamonaviy jamiyatdagi gender tengsizligi Bourdieu ning "ijtimoiy kapital" va "habitus" tushunchalari orqali tahlil qilinganda, uning chuqur ijtimoiy ildizlarga ega ekanligi namoyon bo'ladi. Til va diskurs, raqamli texnologiyalar, pandemiya sharoitida ekologik inqiroz gender muammolarini kuchaytiruvchi omillar sifatida

namoyon bo'lmoqda. Gender tengligini ta'minlash uchun jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy tuzilmalarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi jarayonida gender tengligi masalalarini zamonaviy falsafiy g'oyalar asosida qayta ko'rib chiqish zarur. Bu jarayonda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash, gender tengligini ta'minlashning yangi nazariy metodologik asoslarini ishlab chiqish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Beauvoir, S. *The Second Sex*. Vintage Classics. 2022, p.283
2. Bourdieu, P. *The Forms of Capital*. Cambridge University Press. 1986, p. 78.
3. Bourdieu, P. *Masculine Domination*. Stanford University Press. 2021, p. 34.
4. Butler, J. *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. Routledge. 2021, p. 23.
5. Джураев Аваз Ахмеджанович, & Закиров Шакирджан Мамажанович (2019). Гражданское общество: основные принципы и условия функционирования. *European science*, (6 (48)), 44-46.
6. Ergash Kuldashevich Akhmedov, (2024). THE MISSIONARY MOVEMENT'S THREAT TO INTERFAITH TOLERANCE. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(05), 326-329.